



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi:

№ BD60710100 -KIM1108

-KIM1208

2024 yil "28" 19



"TASDIQLAYMAN"

SamDU rektori:

R.I.Xalmuradov

2024 yil " " "

KIMYO
FAN DASTURI

Bilim sohasi: 700000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi: 710000- Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi: 60710100– Kimyo muhandisligi

Fan/modul kodi KIM1108 KIM1208		O'quv yili 2024-2025	Semistr 1-2	ECTS – Kreditlar 4/4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4/4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
	Kimyo	60/52		60/68	240

Fanning maqsadi (FM)

2. I. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga kimyoni tushunchalari va qonunlari, kimyoga doir barcha mavzularni, kimyoviy elementlar va ular birikmalarining tuzilishi, kashf qilinish tarixi, tabiatda uchrashi, olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari, qo'llanilishi, metallar va qotishmalar xossalari, metallarni sinash usullari, metallmas konstruksion materiallar, hozirda rivojlanib borayotgan nano materiallar, kompozitsion materiallar, smart materiallar, keramika va shisha, bog'lovchi materiallar, kamyob va nodir metallar ishlab chiqarishning zamonaviy va istiqbolli texnologik yechimlari haqida hamda qattiq materiallar haqidagi fundamental bilimlarni, D.I.Mendeleyevning davriy qonuniga asoslangan holda, modda tuzilishini va boshqa nazariy kimyoning asosiy tushunchalarini hozirgi zamon ma'lumotlaridan foydalanib, chuqur bilim berish va talabalarda mantiqiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalar nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kimyoviy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashish hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, kimyo fanning sifat tavsifidan miqdoriy tassavvurlarga o'tishni amalga oshirish vazifalarini bajaradi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Kirish. Kimyoning asosiy tushunchalari va qonunlari. Atom tuzilishi.

Kimyoviy elementlar. Molekulyar ta'limot va kimyoviy element. Atom og'irliklarni aniqlash usullari. Kimyoviy elementlarning kosmik tarqalishi. Noorganik birikmalar asosiy turlarining strukturasi. Molekulyar va nomolekulyar moddalar. Grafik formulalar va ularning turli strukturali moddalarga qo'llanilish imkoniyati. Asosiy stexiometrik qonunlar, ularning hozirgi zamon talqini. Stexiometrik qonunlarning molekulyar va nomolekulyar moddalarda qo'llanilishi. Atomning kashf qilinishi. Levkipp, Demokrit va Epikur gerotezalari. Atom modellari (Demokrit, Dalton, Tomson, Rezerford, Bor).

Atom va molekullarning realligi. Kroks katod nurlari. Elementlarning rentgen spektrlari va Mozli qonuni. Element atomlarining spektrlari. Elektromagnit nurlar spektri (Maks Plank). Kvant mexanikasining boshlang'ich tushunchalari. Kvantlar nazariyasi. Atom tuzilishining to'liq nazariyasi. Elektronning ikki xil tabiatga ega ekanligi. Noaniqlik prinsipi. Vodorod atomi spektri. Vodorod atomning asosiy va qo'zgalgan xolatida yadro atrofida elektron buluti zichligining radial taksimlash. Bor nazariyasi. Ridberg tenglamasi. Kimyoviy element atomining elektron qobig'i. Elektron bulut. Atom orbitallar. Kvant sonlar. Atomlarning elektron tuzilishi. Orbitallar energiyasi. Pauli prinsipi va elektron qobikchalarning sig'imi. Xund qoidasi va atom orbitallarning to'lib borish tartibi. Klichkovskiy qoidasi. Elementlar atomlarining elektron qobiqchalari tuzilishi.

Kimyoviy elementlarning bir-biriga aylanishi va radiokimyo asoslari. Tabiiy va radioaktiv elementlar. Radioaktivlik hodisasining ochildishi. Radioaktivlik turlari. Yarim yemirilish davri. Radioaktiv parchalanish konstantasi. Sun'iy radioaktivlik hodisasining ochildishi. Atom energiyasidan foydalanish va AES larning ishlash prinsipi. Izotop, izobar, izoton, pi-mezon.

D.I. Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy jadvali va davriy qonuni. Elementlar xossalarning davriyligi.

Kimyoviy elementlar davriy qonun va davriy jadvalining kashf qilinishi. Kimyoviy elementlar davriy jadvalining tuzilishi. Atom qobikchalarning elektronlar bilan to'lib borishdagi o'ziga xoslik va davrlarning shakllanishi s,p,d,f elementlar va ularning davriy sistemadagi o'ri. Kimyoviy elementlarning davriy va davriy bo'lmagan xossalari. Atomlarning ionlanish energiyalari. Atomning elektronga moyilligi. Elektromanfiylik. Elektromanfiylikning turlicha talqin qilishi. Poling va Allred-Rochov shkalasi. Klassik ichki va ikkilamchi davriylik. Valent elektronlar. Ishqoriy metallar, galogenlar va nodir gazlar xossalariidagi davriylik. Metallar va metalmaslar kimyoviy faolligining davrlar va guruhlarda o'zgarish qonuniyati. Oksidlar va gidrooksidlarning kislota-asoslik xossalariini davrlarda va guruhlarda o'zgarishi.

Kimyoviy bog'lanish. Agregat holatlar.

Kimyoviy bog'lanish to'g'risidagi asosiy tushunchalar va kimyoviy bog'ning hosil bo'lish mexanizmi.

Kovalent bog'lanish. Lyuis nazariyasi. Lyuis formulalalri. Elektromanfiylik va bog' qutbliligi. Valent bog'lanishlar (Luis, Poling, London, Gaytler, Sleyter) nazariyasining asosiy holatlari. Kimeviy elementlarning valentligi. Hozirgi zamon kimyosida valentlik tushunchasining turlicha talqin etilishi. VB nazariyasi asosida valentlik. VB usulining yutuq va kamchiliklari. Kimyoviy bog'ning xossalari. Kovalent bog'lanishning to'yinuvchanligi va

yo'naluvchanligi. Bog'ning karraliligi (tartibi). Bog'ning qutbliligi va qutblanuvchanlik. Valent burchagi. Bog'ning ionlik darajasi. Kimyoviy bog'langan atomlarning effektiv zaryadi va bog'ning ionlik darajasi. Bog'ning dipol momenti. Kovalent bog'lanishli molekulalarning turlari.

Atom orbitallarining gibrizlanishi. Sodda gibrizlanish turlari: sp -, sp^2 -, sp^3 -, sp^3d -, sp^3d^2 -. Takomillashgan elektron juftlar ishtirokidagi gibrizlanish. AX , AX_2 , AX_3 , AX_4 , AX_5 , AX_6 turidagi molekulalar va ionlarning fazoviy konfiguratsiyalari. σ va π bog'lanish.

Xund va Mallikenlarning molekulyar orbitallar (MO) nazariyasi. Molekulyar orbitallar asosiy holatlari. Atom orbitallarining chiziqli kombinatsiya (AOChK) usuli. Bog'lovchi va bushashtiruvchi MO. Bog'lanish tartibi. Molekulalarning fazoviy shakli. Gomoatom va geteroatomli molekulalarning tuzilishi. Ikki atomli molekulalar va tegishli molekulyar ionlarning nisbiy turg'unliklari. VB va MO nazariyalarini taqqoslash. Rezonans va formal zaryad.

Ion bog'lanish. Ionlarning qutblanishi. Metall bog'lanish.

Molekulalararo ta'sirlar. Van-der-Vaals kuchlari. Oriyentatsion, induksion va dispersion ta'sirlashuvlar. Vodorod bog'lanish. Vodorod bog' tabiati, uning mikdoriy tavsifi. Molekulalaro va ichki molekulyar vodorod bog'.

Donor-akseptor bog'lanish. Dativ bog'lanish.

Agregat holat. Qattiq, suyuq, gaz va plazma. Isish jarayonlari. Solishtirma issiqlik sig'imi

Moddaning qattiq (kristall va amorf) holati. Polimorf (polimorfizm) va izomorf (izomorfizm) moddalar. Kristallar izotropiyasi va anizotropiyasi. Kristall panjara energiyasi. Brave kristallari. Kristallarning bog'lanish tabiati asosidagi: atomli (kovalent), ionli, metalli, molekulyar turlari. Kristallardagi diffektlar. Ionli, atomli va molekulyar kristallarning suyuqlanish temperaturasini belgilaydigan omillar. Zonalar nazariyasi.

Suyuq holat.

Gaz holat. Gaz aralashmalari va parsial bosim. Kinetik molekulyar nazariya. Diffuziya va effuziya. Real gazlar. Ideal va real gaz qonunlari.

Plazma holat.

Dispers sistemalar. Eritmalar.

Aralashmalar. Dispers sistemalar. Chin eritmalar. Kolloid eritmalar. Liofil va liofob kolloidlar. Zollar. Gel. Dag'al dispers sistemalar. Suspenziyalar. Emulsiyalar.

Suyuq holat. Suyuqlik molekulalarining ionlanishi. Suyuq eritmalar. Erish fizik-kimyoviy jarayon. Moddalarning eritmadagi ionlanishi va dissotsilanishi. Erishning energetik effekti. Moddalarning erishida entalpiya va entropiyaning o'zgarishi.

Eritmalar tabiati haqida nazariyalar. D.I.Mendeleyevning eritmalar uchun kimyoviy nazariyasi. Solvatlanish. Solvatlar. Suvning o'ziga xos erituvchilik xususiyatlari. Gidratlar. Kristalgidratlar. Moddalarning eruvchanligi.

Eruvchanlik ko'effitsiyenti va eruvchanlik ko'raytmasi. Qattiq, suyuq va gaz holdagi moddalarning erishi. Qattiq eritmalar. Gazlarning suyuqliklarda eruvchanligi. Genri va Genri-Dalton qonunlari. Sechenov qonuni. Moddalarning erishidagi issiqlik jarayonlari. Moddalarning bir-birida erishiga bosim va moddalar tabiatning ta'siri. Eritmalar turlari. Eritmalardagi kimyoviy muvozanat. Eritmalarning xossalari. Eritmalarning kolligativ xususiyatlari. Osmotik bosim. Turli xil osmotik bosimdagi (izotonik eritma, gepertonik eritma va gerotonik eritmalar) eritmalar. Parsial bug' bosimi. Parsial bug' bosimi. Raul qonunlari. Tonometrik qonun. Krioskopiya va ebuloskopiya. Izotonik ko'effitsiyent.

Eritma tarkibini ifodalash usullari: massa ulushi(foiz konsentratsiya), molyarlik, normallik, molyallik, titr, molyar ulush, hajmiy ulush. Eritmalar konsentratsiyalari orasida bog'liqlik.

Kimyoviy termodinamika va termokimyo. Kimyoviy kinetika.

Kimyoviy jarayonlar energetikasi. Kimyoviy termodinamikaning asosiy tushunchalari. Kimyoviy sistema. Sistemaning ichki energiyasi. Issiqlik va ish. Sistemaning holat parametrlari va ular orasida bog'liqlik. Kimyoviy o'zgarishlar energetikasi. Reaksiyaning issiqlik effekti. Termodinamika qonunlari. Termokimyo. Termokimyoviy hisoblashlar. Sistemaning holat funksiyalari va ular orasida bog'liqlik. Entalpiya hakida tushuncha. Moddalarning hosil bo'lish standart entalpiyasi. Gess qonuni. Lavuaze-Laplas qonuni. Reaksiya entalpiyasining o'zgarish qiymatiga temperaturaning ta'siri. Entalpiyaning o'zgarishi va reaksiyaning yo'nalishi. Gess qonuni. Entropiya hakida tushuncha. Moddaning standart entropiyasi. Entropiya qiymatiga temperaturaning ta'siri. Gibbs energiyasi hakida tushuncha. Gibbs energiyasi o'zgarishining qiymati va ishorasi asosida reaksiya yunalishini va oxirgacha sodir bo'lish imkoniyatini aniqlash. Moddalarning termodinamik barkarorligi va ularning reaksiya qobiliyati. Moddalarning reaksiya qobiliyatiga kinetik omillarning ta'siri.

Gomogen va geterogen reaksiyalar. Kimyoviy reaksiya tezligi. Reaksiya mexanizmlari. Gibbsning aktivlanish energiyasi. Kimyoviy reaksiya mexanizmi. Kimyoviy o'zgarishlarni tezlashtirishni fizik usullari.

Kimyoviy reaksiyalar (gomogen va geterogen). Kimyoviy reaksiya tezligi. Guldberg va Vageyelarning massalar ta'siri qonuni. Kimyoviy reaksiya tezligiga ta'sir qiluvchi omillar (modda tabiati, konsentratsiya, bosim (faqat gazlar uchun), temperatura, katalizator, fazalar sirtining yuzasi (geterogen reaksiyalar uchun)). Kimyoviy reaksiya tezligining konstantasi. Reaksiya tartibi va molekulyarligi. Arrenius tenglamasi. Katalizatorning asosiy tavsiflari: faolligi, selektivligi, tanlab ta'sir etishi, unumdorligi, regeneratsiya qilishga qobiliyati, solishtirma sirti. Kataliz. Gomogen va geterogen katalitik reaksiyalar. Gomogen va getrogen katalitik reaksiyalarda oraliq boskichlar. Fizik va kimyoviy adsorbilanish. Adsorbsiyalash qobiliyatiga qarab katalizatorlar

faolligini aniqlash. Promotorlar. Katalitik zaxarlar. Ingibitorlar. Zanjirli kimyoviy reaksiyalar.

Qaytar va qaytmas kimyoviy reaksiyalar. Kimyoviy muvozanat. Kimyoviy muvozanat konstantasi. Kimyoviy muvozanatga ta'sir etuvchi omillar, Le Shatele prinsipi. Ionlanish konstantasi. Kompleks hosil bo'lish konstantasi. Geterogen sistemalardagi muvozanat.

Elektrolitik jarayonlar. Elektrolitik dissotsilanish nazariyasi. Suvning dissotsilanish. Tuzlar gidroliz. Indikatorlar

Elektrolitik dissotsilanish. Elektrolitlar va noelektrolit. Modda tabiatning suvli eritmada elektrolitik dissotsilanishga ta'siri. Dissotsilanish mexanizmi. I.A.Kablukov nazariyasi(eritmada ionlarning gidratlanishi). Elektrolitmas moddalarning eritmaları uchun Van-Goff tenglamasi. Elektrolitik dissotsilanish nazariyasi asosida kislota, asoslar va tuzlar. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar. Svante Arrenius elektrolitik dissotsilanish nazariyasini asosiy holatlari. Elektrolitlarning dissotsilanish darajasi unga ta'sir etuvchi omillar. Kuchli elektrolitlar nazariyasining asosiy holatlari. Eritmada ionlar konsentratsiyasi va aktivlik. Kuchsiz elektrolitlar eritmalaridagi muvozonat. Elektrolit eritmalarida boradigan reaksiyalar dissotsilanish. Dissotsilanish konstantasi va konstanta qiymatiga ta'sir qiluvchi omillar. Dissotsilanish konstantasi va dissotsilanish darajasi orasidagi bog'lanish. Ostvaldning suyultirish qonuni. Ionlarning aktivligi. Kislota va asoslar nazariyalari. Uning asosiy holatlari.

Kompleks ionlarining eritmada dissotsilanishi. Beqarorlik konstantasi. Kompleks ionlarining eritmada barmkorligi belgilovchi omillar. Qo'shaloq tuzlar dissotsilanishning o'ziga xos tomonlari.

Suvning dissotsilanishi. Suvning avtoprotoliz konstantasi. Suvning ion ko'paytmasi. Suvning dissotsilanishiga temperaturaning ta'siri. Vodorod ko'rsatkich. Eritma pH. Indikatorlar. Indikatorlar turlari. Qiyin eriydigan elektrolitlar. Cho'kma bilan to'yingan eritma orasidagi muvozonat.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining turlari. Asosiy oksidlovchi va qaytaruvchilar.

Element atomlarining oksidlanish darajalari. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari va ularining turlari. Oksidlanish-qaytarilishi reaksiyalarining tenglamalari uchun koeffitsiyenlar tanlashning ikki usuli: elektron balans usuli, ion -elektron usuli. Oksidlanish-qaytarilish (red-oks) sistemalarni yarim reaksiya (xususiy reaksiya) usulida ifodalash. Oksidlanish-qaytarilishi (red-oks) potentsiali red-oks sistemalarning mikdoriy tavsifi ekanligi. Nernst tenglamasi. Standart red-oks potentsiallar va ularni aniqlash usullari. Vodorod elektrod. Metallarning elektro-kimyoviy kuchlanishlar qatori. Sistema red-okspotentsiali qiymatining ionlar konsentratsiyasi, harorat, pH va eritmada kompleks birikma

hosil bo'lishiga bog'likligi. Suvning oksidlovchilik xossalari. Suvli eritmalarida oksidlanish-kaytarilish sistemalarining turg'unligi.

Tuzlarning gidrolizi. Tuzlarning kation va anion buyicha gidrolizlanishi. Gidroliz mexanizmi. Tuzlar gidrolizining molekulyar va ionli tenglamalari. Tuz ionlarining gidroliz reaksiyasida ionlar tabiati, zaryadi va radiusining ta'siri. Gidroliz darajasi va konstantasi. Gidroliz darajasigi eritma konsentratsiyasi temperuturasi muhitning ta'siri. Nordon tuzlarning gidrolizi. Qiyin eriydigan tuzlar gidrolizi. Bufer eritmalar haqida tushuncha. Bufer eritmalar turlari. Bufer sig'imi.

Metallarning umumiy sharhi. Galvanik elementlar. Elektroliz.
Metallar korroziyasi.

Metallarning umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishidagi o'ziga xoslik. Metallarning o'ziga xos belgilari. Metallarning kristall strukturasi. Metallarning ichki tuzilishi: 1) elektron gaz nazariyasi; 2) zonalar nazariyasi. Metall bog' va uning o'ziga xosligi. Zonalar nazariyasi asosida metall bog', o'tkazgichlar, yarim o'tkazgichlar va dielektriklar. Metallarning tabiatda uchrashi, umumiy olinish usullari (Pirometallurgiya. Gidrometallurgiya. Elektrometallurgiya) va fizikaviy xossalari. Metallarning normal elektrod potensiallari. Nernst tenglamasi. Oksidlanish-qaytarilish sistemalari. Elektr o'tkazgichlar, yarim o'tkazgichlar va dielektriklar. Metallarning elektrokimyoviy kuchlanishlar qatori. Elektroliz. Elektroliz qonunlari. Metallar korroziyasi. Kimyoviy va elektrokimyoviy korroziya. Korroziya mexanizmi. Korroziya tezligini belgilovchi omillar. Korroziya aktivator va ingibitorlari. Metallarni korroziyadan himoya qilish usullari. Elektrokimyoviy himoya usullari. Metallarning qotishmalari. Qotishmalarning fizik-kimyoviy tahlili. Qotishmalarning holat diagrammalari. Qotishmalarning umumiy xossalari. Aralashmalar. Evtetikalar. Qattiq eritmalar.

Koordinatsion (Kompleks) birikmalar.

Koordinatsion birikmalar tarixi. Koordinatsion birikmalar tarkibi. Vernerning koordinatsion nazariyasi. Koordinatsion nazariyaning asosiy holatlari: markaziy atom va addendlar (ligandlar), tashqi va ichki sfera, koordinatsion son. Kompleks yadrosi va uning asosiy va qo'shimcha valentliklari. Tashqi va ichki koordinatsion qavat (sfera)lar. Davriy sistemaning guruhlar buyicha elementlar atomlari koordinatsion sonlarning o'zgarishi. Koordinatsion sonni aniqlash usullari. Tipik ligandlar. Mono va polidentat ligandlar. Kation anion va betaraf (neytral) komplekslar. Koordinatsion birikmalarda kimeviy bog' va ular tuzilishining o'ziga xosligi. Kompleks hosil qiluvchi atom orbitallarning gibridlanish va kompleks ionning fazoviy konfiguratsiyasi. Kompleks birikmalarda kimyoviy bog'ning tabiati, markaziy ionning ligandlar bilan elektrostatik va kovalent ta'sirlashishi. Kompleks birikmalarning tuzilishini valent bog'lanishlar nuqtai nazaridan tushuntirish. Bog'lovchi, bo'shashtiruvchi va bog'lamovchi molekulyar orbitalar. Oktaedr,

tekis kvadrat va tetraedr tuzilishli komplekslar. Kompleks birikmalarning rangi. Kompleks birikmalarning magnit xossalari. Koordinatsion birikmalar nomlanishi va turlari. Kompleks birikmalarning ionlanishi. Verner-Miolati qatori.

Koordinatsion birikmalarda izomeriya turlari. Koordinatsion, ionizatsion, gidrat, tuzli izomeriyasi, koordinatsion polimerizatsiyasi, geometrik va optik izomeriyasi.

Kompleks birikmalarning eritmalaridagi muvozanatlar. Komplekslarning beqarorlik konstantasi. Irving-Vilyams qatori. Yan-Teller effekti.

Kompleks birikmalar kimyosining muhim qoidalari: 1) Peyrone qoidasi; 2) Iorgensen qoidasi; 3) L.A.Chugayev qoidasi; 4) N.S.Kurnakov qoidasi; 5) I.I. Chernyayev qoidasi

Yettinchi guruhning p-elementlari.

Galogenlarga umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Elementlarining atom radiusi, ionlanish potentsiali, elektronga moyilligi va nisbiy elektromanfiyligining guruh bo'ylab o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajalari. Oddiy moddalarning kashf qilinishi, tabiiy birikmalari, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari, biologik xossalari hamda ishlatilishi. Galogenvodorodlar. Galogenvodorodlar olishning umumiy usullari, fizik va kimyoviy xossalari. Reaksiya qobiliyati. Kislotalilik va qaytaruvchilik xossalari. Ftorvodorod kislotasiga xos xususiyatlar. Xlorid va plavik kislotalarning ishlatilishi. Ftor, xlor, brom, yod oksidlari. Xlor, brom, yodning kislorodli kislotalarini molekulasining tuzilishi, nisbiy turg'unligi, umumiy olinish usullari, oksidlovchilik va kislotalik xossalari hamda ishlatilishi. Galogenlar kislorodli kislotalarining tuzlarini olinish usullari, oksidlovchilik va qaytaruvchilik xossalari hamda ishlatilishi. Gipoxloridlar, xloratlar, perxloratlarning ishlatilishi. Kaliyning xlorat va peroxloratlari asosidagi oksidlovchi, yonuvchi va portlovchi aralashmalari. Tuzlari va kislotalarining nisbiy turg'unligi. Galogenlararo birikmalar.

Oltinchi guruhning p-elementlari.

Xalkogenlarning umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Guruh bo'yicha atom radiuslari, ionlanish potentsiallari, elementlarning elektronga moyilligi, valentligi va oksidlanish darajalari o'zgarishi. Oddiy moddalarning kashf qilinish tarixi, tabiiy birikmalari, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari, biologik xossalari hamda ishlatilishi. Oksidlanish-qaytarilish xossalari. H_2E turidagi gidridlar. Ularning olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Kislorodning allotropik shakllari. VB va MO nazariyalari asosida kislorod molekulasidagi kimyoviy bog'. Ozon molekulasining tuzilishi. Oltingugurtning

polimer shakl ko'rinishlari. Ozon tabiatda uchrashi, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari, biologik xossalari hamda ishlatilishi. Xalkogenlarining oksidlari tuzilishining o'ziga xosligi, olinish usullari, oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari, ishlatilishi. Sulfit, selenit va tellurit kislotalar tuzilishi va xossalari. Sulfit-tellurit kislotalar qatorida oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalarining o'zgarishi. Sulfat, selenat va tellurat kislotalar tuzilishi, olinish usullari, kislotalik va oksidlovchilik xossalarining o'zgarishi hamda ishlatilishi. Sanoatda sulfat kislota ishlab chiqarish. Suyultirilgan va konsentrlangan sulfat kislotasining xossalari. Oleum. Sulfatlar. Gidrosulfatlar. Disulfatlar (pirosulfatlar). Selenatlar. Telluratlar. Tiokislotalar va ularning tuzlari. Tiosulfatlar. Tiosulfat ionning tuzilishi. Natriy tiosulfatning kaytaruvchilik xossalari va ishlatilishi. Peroksosulfat va peroksodisulfat kislotalar. Ular molekulalarning tuzilishi. Peroksosulfatlar. Gidrosulfat kislota. Ular molekulasining tuzilishi. Xalkogenlar boshqa tuzlari tuzilishi, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Vodorod sulfid. Polifidlar va ularga mos bo'lgan kislotalarning barqarorligini taqqoslash.

Beshinchi guruhning p-elementlari.

Elementlariga umumiy tavsif. Atomlarining tuzilishi. Guruh bo'yicha atom radiuslari, ionlanish potentsiallari, elementlarning elektronga moyilligi, valentligi va oksidlanish darajalari o'zgarishi. Oddiy moddalarning kashf qilinish tarixi, tabiiy birikmalari, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari, biologik xossalari hamda ishlatilishi. Azot molekulasidagi kimyoviy bog'lanishi VB va MO nazariyalari asosida tahlil qilish. Fosforning allotropik shakllari va o'ziga xos tuzilishga egaligi. Mishyak va surmaning allotropik shakl o'zgarishlari. Oksidlanish-qaytarilish xossalari. EH_3 va boshqa turidagi gidridlar tuzilishi. Ularning olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari, ishlatilishi. Ammiak olish. Ammiak sintez qilish reaksiyasining termodinamik tavsifi. Suyuq ammiak erituvchi sifatida. Amminokomplekslar. Ammoniy tuzlari. Amidlar, imidlar, nitridlar. Gidroziniy tuzlari. Gidrazin yokilg'i sifatida. Gidroksilamin. Molekulasining tuzilishi. Birikish oksidlovchi-qaytaruvchilik reaksiyalari. Gidroksilamin tuzlari. Azid kislota va uning tuzlari. Azid ioni va azid kislota molekulasining tuzilishi. Azidlarning qo'lanilishi. Pnektogenlarining kislorodli birikmalari tuzilishining o'ziga xosligi, olinish usullari, oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari, ishlatilishi. Azot (I, II, III, IV, V) oksidlari va ularga to'g'ri keluvchi kislotalar tuzilishi, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari, ishlatilishi. Fosfor, mishyak, surma va vismut oksidlari. Ular molekulalarining tuzilishi o'ziga xos tuzilishga ega ekanligi, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari, ishlatilishi. Atomlarining yuqori oksidlanish darajasidagi birikmalar barqarorligining o'zgarishi. Birikmalardagi kimyoviy bog'lanish tabiati. Nitrit,

fosfit va arsenit kislotalar tuzilishi va xossalari. Nitrat, ortofosfat va arsenat kislotalar tuzilishi, olinish usullari, kislotalik va oksidlovchilik xossalari o'zgarishi hamda ishlatilishi. Sanoatda nitrat kislota ishlab chiqarish. Nitrat kislota, molekula va nitrat ionining tuzilishi. Konsentrlangan va suyultirilgan nitrat kislota oksidlovchilik xossalari. Zar suvi. Fosforning kislorodli kislotalari. Gipofosfit kislota va gipofosfitlar. Fosfit kislota va fosfitlar. Meta-, piro- va ortofosfat kislotalari va ularning tuzlari. Mishyak, surma (III, V) va vismut (III) gidroksidlari. Meta-orto-shakllari. Kislota-asos va oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari. Pnuktogenlar tuzlari tuzilishi, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Mishyak, surma va vismut sulfidlari. Ularni olishning umumiy prinsiplari. Mishyak va surmaning tiotuzlari. Metallar Qora porx tarkibi va ishlatilishi. Azotli va fosforli o'g'itlar. Oddiy superfosfat, qo'sh superfosfat, pretsipitat, fosforit uni aralash o'g'itlar. Ammofos.

To'rtinchi guruhning p-elementlari.

Elementlariga umumiy tavsif. Atomlarining tuzilishi. Guruh bo'yicha atom radiuslari, ionlanish potentsiallari, elementlarning elektronga moyilligi, valentligi va oksidlanish darajalari o'zgarishi. Oddiy moddalarning kashf qilinish tarixi, tabiiy birikmalari, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari, biologik xossalari hamda ishlatilishi. Element atomlarining allotropiyasi. Olmos, grafit, karbin, fluren, londestiyen. Oksidlanish-qaytarilish xossalari. EH_4 va boshqa turidagi gidridlar tuzilishi, olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Uglerod (II)-oksid, uglerod suboksidi va uglerod (IV)-oksid tuzilishi, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari. Ularga to'g'ri keluvchi kislotalar tuzilishi. Karbonat kislota va uning tuzlari, xossalari. Karbidlar turlari, tuzilishi, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Karborund. Metallarning karbonillari. Fosgen. Uglerod (II) oksidning zaxarligi. Kremniy (II, IV) oksidlari. Kvars shisha. Shisha ishlab chiqarish. Silikat kislotalar. Orto, metapolisilikatlar. Alyumosilikatlar. Sun'iy silikatlar. Germaniy, qalay, qo'rg'oshin (II, IV) oksidlari, xossalari. Germaniy, qalay, qo'rg'oshin (II, IV) gidroksidlari, xossalari. Elementlarning (II, IV) gidroksidlarini kation va anion shaklidagi birikmalari, nisbiy barqarorligi, gidrolizlanishi. IV guruh r-elementlar birikmalari tuzilishi, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Solvey, Leblan va elektroliz usullarda soda ishlab chiqarish. Tiobirikmalari (kislotalari, tuzlari). Tiokarbonatlar tuzlari. Galogenkomplekslar. Geksaftorkremniy kislota va uning tuzlari. Geksaxlorqalay kislota va uning tuzlari. Uglerodning azot tutgan birikmalari. Vodorod tsianid. Sianid kislota. Sianidlar. Sianidlar gidrolizi. Vodorod tsianid va tsianidlarning zaxarligi. Vodorod rodanid. Vodorod rodanid kislota. Rodanidlar. Silitsidlar. Qalay va

qo'rg'oshin qotishmalari.

Uchinchi guruhning p-elementlari.

Elementlariga umumiy tavsif. Atomlarining tuzilishi. Guruh bo'yicha atom radiuslari, ionlanish potentsiallari, elementlarning elektronga moyilligi, valentligi va oksidlanish darajalari o'zgarishi. Oddiy moddalarning kashf qilinish tarixi, tabiiy birikmalari, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari, biologik xossalari hamda ishlatilishi. Bor birikmalarining o'ziga xosligi, tuzilishi, olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Orto-, meta va poliboratlar kislotalar va ularning tuzlari tuzilishi, olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Bor gidridlari tuzilishi, olinish usullari, kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Diboran. Diboran molekulasidagi kimeviy bog'larning o'ziga xosligi. Bor gidridlarining turganligi va reaksiya kobiliyati. Borazol. Alyuminiyning sanoatda olinishi va ishlatilishi. Alyuminiy, Galliy, Indiy va Talliy birikmalarining o'ziga xosligi, tuzilishi, olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. $E(OH)_3$ lar, tuzilishi, xossalari. Alyuminiy-talliy qatorida gidroksidlarning kislota va ishqorlarga munosabati. Kompleks birikmalari tuzilishi, olinish usullari, kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Talliy (I) va talliy (III) birikmalarining zaharligi.

Geliy va sakkizinchi guruhning p-elementlari

Geliy va sakkizinchi guruhning p-elementlari. Elementlarning umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Elementlarining atom radiusi, ionlanish potentsiali, elektronga moyilligi va nisbiy elektromanfiyligining guruh bo'ylab o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajalari. Oddiy moddalarning kashf qilinishi, tabiatda uchrashi, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Kimyoviy inertlik sabablari. Ksenon va kripton birikmalari tuzilishi, olinish usullari, kimyoviy xossalari va ishlatilishi.

Birinchi guruhning s-elementlari.

Elementlarning umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Elementlarining atom radiusi, ionlanish potentsiali, elektronga moyilligi va nisbiy elektromanfiyligining guruh bo'ylab o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajalari. Birinchi guruhning s-elementlari oddiy moddalarning kashf qilinishi, tabiatda uchrashi, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi.

Vodorod – davriy sistemaning birinchi elementi. Vodorod atomi tuzilishining o'ziga xosligi. Vodorodni tabiatda uchrashi, olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Birikmalarida kimeviy

bogning tavsifi. H^+ , H^- , H_3O^+ ionlarining hosil bo'lish va barqarorlik sharoitlar. Ortovodorod va paravodorod. Vodorodning birikmalari, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Gidridlar. Ularning turlari, tuzilishi.

Suv tarkibi, tuzilishi, tabiatda uchrashi, laboratoriyada hosil qilish, fizik va kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Suv tarkibiga yoki kimyoviy birikma tarkibida uchrashiga ko'ra turlari. Suvni vaqtinchalik va doimiy qattiqligi va uning bartaraf etish usullari. Suvni tozalash. Muz va suv tuzilishi va xossalarini taqqoslash. Muzning turlari.

Vodorod peroksid, peroksokislotalar va peroksotuzlar. Ularning tuzilishi, olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi.

